O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
"O'ZMILLIYBANK" AJ

TOSHKENT SHAHAR BOSH BOSHQARMASIDA O'TKAZILGAN
TEXNIK O'QUV MASHG'ULOTI
BAYONI

TASDIQLAYMAN
O'zmilliybank AJ
Toshkent shahar Bosh boshqarmasi
boshlig'ining birinchi o'rinbosari
_____U.A.Fattoxov

01.05.2026 yil ***Toshkent shahri***

Raislik qildi:
X.Valiyev - Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i
Qatnashdilar:
Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi, Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi M.Maxmadazizov, Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i X.Valiyev, BXM bo'yicha kreditlarni dastlabki undirish bo'limi boshlig'i A.To'laganov, Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi loyiha menejerlari.(Qatnashgan xodimlar soni -17 ta)

KUN TARTIBI:

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratilgan holda 2017 yil 03 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi hamda bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

SO'ZGA CHIQDI

Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi, Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi M.Maxmadazizov, kun tartibidagi masalalar yuzasidan so'zga chiqib, Korrupsiya tushunchasi, kelib chiqish sabablari va huquqiy tabiati haqida tushuntirishlar berib o'tildi:

Ma'lumki, bugungi kunda Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois, unga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etib, respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim bo'ladi.

Korrupsiya - o'ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma'naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug'diradi.

Etimologik jihatdan "korrupsiya" - lotincha "corruptio", ya'ni "buzish, sotib olish, pora evaziga og'dirish" degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki

nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish demakdir.

Korrupsiyaning ijtimoiy sabablariga - jamiyatdagi nosog'lom muhit, aholining huquqiy bilim va madaniyati, ma'naviyatining quyi (past darajada) ekanligi, diniy-ma'rifiy savodsizligi, uyushqoqlik va jamoatchilikdagi faollikning yetishmasligi kiradi.

Aytish lozimki, korrupsiya keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, demokratik va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishiga olib keladi, iqtisodiy rivojlanishni izdan chiqaradi, jamiyat va davlat uchun o'ta xavfli bo'lgan uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning keng yoyilishiga sharoit yaratib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, korrupsiya va poraxo'rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo'lgan adolatning yo'qolishiga olib keladi. Mamlakatimiz mustahkamligi, xalqimiz farovonligi, yurtning rivoji va gullab yashnashini, obod bo'lishini istagan har bir fuqaro pora olish va berish illatidan xalos bo'lishi, bir so'z bilan aytganda "halollik vaksinasi" bilan emlanishi kerakligi ta'kidlab o'tildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning ichki axloqiy-ruhiy va e'tiqodiga aylanishi kerakligi to'g'risida barcha xodimlarga tushuntirish berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda har birimizdan bu boradagi ishlarni tashkil etishimizda oqilona, huquqiy madaniyat va mas'uliyat bilan yondoshishimiz hamda ushbu yo'nalishdagi qonunbuzilish holatlarini oldini olish maqsadida xodimlarga qatiy ogohlantirish berildi.

Kun tartibidagi masalalardan kelib chiqib, yig'ilishda

QAROR QILINDI:

Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi va BXM bo'yicha kreditlarni dastlabki undirish bo'limi ma'sul xodimlari yuqorida keltirilgan masalaga to'g'ri va oqilona yondashish nazoratga olinsin, javobgarlik va nazorat qilish Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i va BXM bo'yicha kreditlarni dastlabki undirish bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklatilsin.

"O'zmillybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i va BXM bo'yicha kreditlarni dastlabki undirish bo'limi xodimlari ishtirokida doimiy ravishda xaftasiga kamida ikki marotaba o'quv mashg'ulotlari o'tkazilsin.

Boshqarma boshlig'i **X.Valiev**

Qatnashdilar:

O'zmilliybank AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Kreditlarni monitoring qilish boshqarmasi Loyiha menejerlari.

1) Ваниев Х.И.

2) Шропшов Ш.К.

3) Жалонов Л.З.

4) Нарзикулов М.М.

5) Шаборов Ш.Ш.

6) Турдиев Х.Ф.

7) Тигаев Г.

8) Абдурахимов З.

9) Турдуев Р.

10) Бекчанов Ш.Х.

11) Адилов Т.Т.

12) Харимов И.

13) Омирзаков А.

14) Тулкинов И.Т.

15) Аширапов Отабек

16) Тулаганов А.